

«Mobil aloqa» toifasidagi hamkorlarga to'lovlardan 5% keshbek» aksiyasi qoidalari.

29 sentabr 2023 y.

«Mobil aloqa» toifasidagi hamkorlarga to'lovlardan 5% keshbek» aksiyasi «Humans» Mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2B uy, STIR 306624856 (Humans) Humans Sodiqlik dasturi doirasida o'tkazilmoqda.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1 Ushbu Qoidalar matnida bosh harfda yoziladigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar www.humans.uz, saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida va "Mahsulotlar va xizmatlar vitrinasi" servisidan foydalanish Qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqasi nazarda tutilmagan bo'lsa.

1.2 Aksiya ishtirokchilari – Humans mobil ilovasida bank kartasini bog'lagan, «Humans Mahsulotlar va xizmatlar vitrinasi» servisidan foydalanadigan mijozlar jismoniy shaxslar, Humans bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini va Ishtirokchiga Humans Visa bank kartasi chiqarish uchun "Ravnaq bank" AJ bilan Humans'ga moliyaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasini tuzgan mijozlar jismoniy shaxslar.

1.3 Aksiya o'tkazilish davri - 01.10.2023dan muddatsiz.

1.4 Aksiya o'tkazilish hududi – O'zbekiston Respublikasi.

2. Aksiya tavsifi

2.1 Aksiya o'tkazilishi vaqtida va ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda, Ishtirokchilar «Mobil aloqa» toifasidagi hamkorlarga to'lovlardan 5% keshbek olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2.2 Aksiyada "Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi" servisidan foydalanishi Humans tomonidan to'xtatib qo'yilmagan yoki yakunlanmagan amaldagi mijozlari, shuningdek Humans'ning boshqa servislarning amaldagi foydalanuvchilari (ushbu Qoidalarning 1.2. bandiga muvofiq) ishtirok eta oladi.

3. Yakuniy qoidalar

3.1 Usbu qoidalar Aksiya ishga tushgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish, Aksiyani bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi va bu haqida tegishli xabarni Humans Saytida e'lon qiladi. Chop

etish sanasi tegishli ma'lumotni Humans Saytida joylashtirish sanasiga mos. Humans Saytida tegishli ma'lumot joylashtirilganda Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa uzaytirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

3.2 Ishtirokchi tomonidan Humans mobil ilovasida hamkorga amalga oshirilgan to'lov jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblanadigan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.